



FARG'ONA VILOYATIIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar






CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiyligida ovqatlanish korxonalar savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **12 311** tani tashkil etib, 2022- yil 1- fevralga nisbatan **3008** taga oshgan (o'sish sur'ati **116,4 %**). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **156** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **12 155** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **1 368,7** mlrd. soʻnni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **94,9 %**ga yetdi.

Shumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **157,5** mlrd. soʻnni (o'sish sur'ati **215,8 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **1 211,2** mlrd. soʻnni (o'sish sur'ati **88,5 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **100,9** mlrd. soʻnni (o'sish sur'ati **89,7 %**) tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**




Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami, mlrd. so'm	2022-yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Farg'na viloyati	1 368,7	94,9	157,5	215,8	1 211,2	88,5
Shaharlar						
Farg'ona	254,3	127,4	68,4	276,4	185,9	106,4
Qo'qon	262,6	95,6	17,8	131,2	244,8	93,8
Quvasoy	19,2	91,0	1,4	57,8	17,8	95,5
Marg'ilon	268,1	88,8	8,8	203,4	259,3	87,1
Tumanlar						
Oltiariq	48,8	90,3	3,0	131,3	45,8	88,5
Qo'shtepa	35,2	79,6	0,9	106,1	34,3	79,1
Bag'dod	39,0	89,3	1,4	57,5	37,6	91,1
Buvayda	59,2	92,6	3,7	167,9	55,5	89,9
Beshariq	44,1	86,7	2,1	142,3	42,0	85,1
Quva	61,3	89,0	2,0	79,3	59,3	89,4
Uchko'prik	66,8	91,6	39,9	523,5	26,8	41,1
Rishton	40,8	84,7	2,0	116,6	38,8	83,5
So'x	20,1	89,1	0,3	98,0	19,8	89,0
Toshloq	27,0	82,0	0,8	55,2	26,2	83,2
O'zbekiston	32,0	84,8	1,6	101,0	30,4	84,1
Farg'ona	30,6	84,1	0,8	119,1	29,8	83,4
Dang'ara	23,9	80,2	1,2	111,6	22,6	79,0
Furqat	21,4	84,4	0,6	84,0	20,8	84,4
Yozyovon	14,3	111,0	0,7	79,1	13,5	113,5

2023-yilning yanvar oyida 2022-yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatning Farg'ona shahri (**127,4 %**), Yozyovon tumani (**111,0 %**) va Qo'qon (**95,6**) shahrida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar, mlrd.so'm)



So'nggi 6 yillikda chakan savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020- yilning mos davriga nisbatan **114,2 %ni** yoki **20 852,0** mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati
oylar kesimida (foizda)**
(2022- yil, 2023- yil yanvar oyi)



2023- yilning yanvar oyida o'sish sur'ati 94,9 %ni tashkil qildi.



JAMI
mlrd. so'm

Jamiga
nisbata
ntovar
aylanma
si ulushi
(foizda)

Farg'ona viloyati	1 368,7	100,0
Farg'ona sh.	254,3	18,6
Qo'qon	262,6	19,2
Quvasoy	19,2	1,4
Marg'ilon	268,1	19,6
tumanlar		
Oltiariq t.	48,8	3,6
Qo'shtepa	35,2	2,6
Bag'dod	39,0	2,9
Buvayda	59,2	4,3
Beshariq	44,1	3,2
Quva	61,3	4,5
Uchko'prik	66,8	4,9
Rishton	40,8	3,0
So'x	20,1	1,5
Toshloq	27,0	2,0
O'zbekiston	32,0	2,3
Farg'ona	30,6	2,2
Dang'ara	23,9	1,7
Furqat	21,4	1,6
Yozyovon	14,3	1,0

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)

Eng yuqori hajm, %da

- 1 Marg'ilon – 19,6
- 2 Qo'qon – 19,2
- 3 Farg'ona – 18,6

Eng quyisi hajm, %da

- 1 Yozyovon – 1,0
- 2 Quvasoy – 1,4
- 3 So'x - 1,5

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Marg'ilon shahari **19,6** % bilan **268,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyisi ulush esa, Yozyovon tumani **1,0** % bilan **14,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda kamayish kuzatildi.

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **1 211,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar oyiga nisbatan **11,5 %**ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **88,5 %**ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar(foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **15,8 %**ga o'sdi va **157,5** mlrd. so'mni tshkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **11,5 %** ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha **So'x** (98,5 %) **Qo'shtepa** (97,3 %) va **Farg'ona** (97,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 11,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush **Uchko'prik** tumani (59,8 %),) **Farg'ona** (26,9 %) va **Quvasoy** (7,5 %) shaharlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Farg'na viloyati	347,7	93,1
Shaharlar		
Farg'ona	840,9	124,9
Qo'qon	1 002,7	94,2
Quvasoy	196,3	89,1
Marg'ilon	1 096,0	87,4
Tumanlar		
Oltiariq	220,3	88,4
Qo'shtepa	175,2	77,6
Bag'dod	172,8	87,5
Buvayda	247,7	90,6
Beshariq	186,5	85,4
Quva	228,3	87,5
Uchko'prik	278,1	89,4
Rishton	194,0	83,1
So'x	247,8	87,6
Toshloq	127,6	80,2
O'zbekiston	128,6	83,3
Farg'ona	137,0	82,3
Dang'ara	130,4	78,2
Furqat	174,2	82,7
Yozyovon	123,2	108,6


2023- yilning yanvar holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **347,7** ming. so'mni (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **93,1 %**) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qo'qon(1 002,7 ming so'm), Marg'ilon (1 096,0 mingso'm) va Farg'ona (840,9 ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **100,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **89,7** %ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **48,5** mlrd. so'mni (**84,4** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **52,4** mlrd so'mni tashkil etdi (**95,2** %).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Farg'na viloyati	100,9	89,7	48,5	84,4	52,4	95,2
Shaharlar						
Farg'ona	4,6	45,0	3,9	52,6	0,6	23,8
Qo'qon	8,9	64,2	5,9	74,0	3,0	51,1
Quvasoy	3,0	68,8	1,1	80,6	2,0	63,6
Marg'ilon	16,2	129,4	9,5	106,5	6,7	186,1
Tumanlar						
Oltiariq	2,6	50,9	0,8	35,6	1,8	62,1
Qo'shtepa	3,1	65,9	1,5	45,1	1,6	114,3
Bag'dod	3,6	73,6	1,2	91,3	2,4	66,8
Buvayda	12,5	94,1	7,2	130,1	5,3	68,5
Beshariq	11,7	134,3	3,9	75,0	7,9	219,3
Quva	8,6	104,6	6,1	162,9	2,5	56,0
Uchko'prik	3,3	137,3	0,9	144,0	2,4	135,1
Rishton	5,4	84,7	0,3	14,7	5,1	120,3
So'x	1,1	42,1	0,6	37,2	0,5	50,8
Toshloq	2,3	222,6	0,6	126,5	1,7	298,4
O'zbekiston	2,8	73,4	1,5	148,6	1,3	45,4
Farg'ona	3,5	71,3	2,8	138,3	0,7	23,8
Dang'ara	0,3	54,1	0,2	67,9	0,1	37,9
Furqat	0,4	62,1	0,4	62,1	0,0	-
Yozyovon	6,9	162,9	0,1	8,7	6,7	266,7

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdag'i tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmag'an holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvি o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **48,5** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**20,8** mlrd.so‘m) to‘g‘ri keldi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	Mlrd. so‘m
	Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 20,8
	Non va non mahsulotlari 2,9
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 5,6
	Tovuq go‘shti 2,0
	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 4,3
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...) 1,4
	Tuxum 2,4
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak 1,2
	Ziravorlar 2,1
	Tuzlamalar 1,2
	Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari (manzarali va qishloq xo‘jaligi) 0,6
	Nooziq-ovqat tovarlari 4,0

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so'm

2023- yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **52,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosи **42,6** mlrd.so'm, qo'y va echkilar – **8,6** mlrd. so'mni, otlar – **0,8** mlrd. so'mni, parrandalar – **0,4** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	Mlrd. so'm
2 yoshdan kata bo'lgan qoramollar	21,7
1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	10,9
1 yoshgacah bo'lgan yosh mollar	10,0
Qo'ylar	8,4
Otlar	0,8
Echkilar	0,2
Kurka, o'rdak, g'oz	0,1
Tovuqlar	0,2
Quyonlar	0,0
Qushlar	0,1

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2023- yil 1- fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **2 539** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – fevral holatiga nisbatan 81 taga oshgan va o'sish sur'ati **103,2 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **4** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 535**tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar oyida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **2,2 %**ni tashkil etib, **34,6** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **11,1 %**ga kamaydi. Bunda savdo aylanmasining **92,2 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Farg'na viloyati	34,6	88,9	2,7	175,9	31,9	85,4
Shaharlar						
Farg'ona	12,0	79,2	2,7	175,9	9,4	68,4
Qo'qon	4,7	96,9	-	-	4,7	96,9
Quvasoy	1,6	101,8	-	-	1,6	101,8
Marg'ilon	4,1	94,4	-	-	4,1	94,4
Tumanlar						
Oltiariq	0,9	94,1	-	-	0,9	94,1
Qo'shtepa	0,4	90,3	-	-	0,4	90,3
Bag'dod	0,6	92,9	-	-	0,6	92,9
Buvayda	0,7	96,7	-	-	0,7	96,7
Beshariq	0,9	99,0	-	-	0,9	99,0
Quva	1,6	95,8	-	-	1,6	95,8
Uchko'prik	1,0	86,1	-	-	1,0	86,1
Rishton	1,8	101,1	-	-	1,8	101,1
So'x	0,5	82,8	-	-	0,5	82,8
Toshloq	0,9	94,9	-	-	0,9	94,9
O'zbekiston	0,6	96,6	-	-	0,6	96,6
Farg'ona	0,7	89,0	-	-	0,7	89,0
Dang'ara	0,8	89,0	-	-	0,8	89,0
Furqat	0,4	92,6	-	-	0,4	92,6
Yozyovon	0,4	98,4	-	-	0,4	98,4

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- fevral holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **196,0** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **28,4** %ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **81,4** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **74,6** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **114,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **61,7** %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Farg'na viloyati	196,0	71,6
Shaharlar		
Farg'ona	62,4	47,9
Qo'qon	78,9	85,0
Quvasoy	0,2	66,7
Marg'ilon	19,3	181,6
Tumanlar		
Oltiariq	0,3	105,1
Qo'shtepa	0,6	104,1
Bag'dod	0,8	105,0
Buvayda	0,9	103,6
Beshariq	0,0	103,3
Quva	0,3	104,7
Uchko'prik	0,7	55,5
Rishton	0,3	105,1
So'x	0,1	104,9
Toshloq	12,8	103,3
O'zbekiston	0,3	105,1
Farg'ona	0,5	103,8
Dang'ara	8,7	103,8
Furqat	1,9	103,6
Yozyovon	6,8	55,6

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qo'qon (**78,9** mlrd. so'm), Farg'ona (**62,4** mlrd. so'm) va Marg'ilon (**19,3** mlrd. so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **567,3** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **1,1 %**ga o‘sdi.



Savdo aylanmasi ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **502,2** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **92,7 %**ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **88,5 %**ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Dang'ara tumani (**11,4 b.**), So'x (**8,0 b.**) va Farg'ona (**3,5 b.**) shaharlarida kuzatildi.

2023- yil 1- fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **5 073** tani tashkil etib, 2022- yil 1- fevral holatiga nisbatan **738** taga ko'paygan, o'sish sur'ati **103,3 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **21** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **5052** tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar , mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Mikrofirm a va kichik korxonal ar, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Farg'na viloyati	567,3	101,1	65,1	336,1	502,2	92,7
Shaharlar						
Farg'ona	120,3	119,8	57,0	347,5	63,4	75,4
Qo'qon	100,7	88,0	8,8	328,1	92,0	82,2
Quvasoy	7,7	60,2	-	-	7,7	60,2
Marg'ilon	205,3	84,2	-	-	206,8	84,8
Tumanlar						
Oltiariq	24,5	256,0	0,3	216,1	24,2	256,6
Qo'shtepa	4,8	376,7	-	-	4,8	376,7
Bag'dod	10,3	269,6	0,1	328,0	10,2	269,3
Buvayda	2,3	39,7	-	-	2,3	39,7
Beshariq	7,4	51,3	-	-	7,4	51,3
Quva	15,0	355,0	-	-	15,0	355,0
Uchko'prik	12,3	64,2	-	47,9	12,3	64,2
Rishton	0,6	110,9	0,1	-	0,5	94,5
So'x	1,4	328,2	-	799,7	1,4	322,1
Toshloq	16,9	191,5	-	-	16,9	191,5
O'zbekiston	7,1	697,3	-	57,7	7,1	724,6
Farg'ona	8,1	230,4	0,2	-	7,8	223,4
Dang'ara	18,7	192,2	0,1	11,4 m	18,7	191,6
Furqat	0,3	10,2	0,0	-	0,3	10,2
Yozyovon	4,0	92,4	0,1	-	4,0	91,0



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi**
Тел. 71-202-80-44 (45)